

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

ZOKIROV FAXRIDDIN ZOHIDJON O‘G‘LI

**EKSPLUATATSIYA QILINAYOTGAN AVTOYO‘L TEMIRBETON
KO‘PRIKLARINING YUK KO‘TARISH QOBILIYATINI OSHIRISH
USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.09.02 – “Geotexnika” (Ko‘priklar, transport tonnolari va metropolitenlar)

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA
DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Zokirov Faxriddin Zohidjon o‘g‘li

Eksploatatsiya qilinayotgan avtoyo‘l temirbeton ko‘priklarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish usullarini takomillashtirish..... 3

Зокиров Фахриддин Зоҳиджон ўғли

Совершенствование методов повышения несущей способности эксплуатируемых автодорожных железобетонных мостов..... 21

Zokirov Fakhriddin Zohidjon o‘g‘li

Improving methods for increasing the load-bearing capacity of operating road reinforced concrete bridges..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**M.T. O‘ROZBOYEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR
SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

ZOKIROV FAXRIDDIN ZOHIDJON O‘G‘LI

**EKSPLUATATSIYA QILINAYOTGAN AVTOYO‘L TEMIRBETON
KO‘PRIKLARINING YUK KO‘TARISH QOBILIYATINI OSHIRISH
USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

05.09.02 – “Geotexnika” (Ko‘priklar, transport tonnellari va metropolitenlar)

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA
DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasida B2023.3.PhD/T4016 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tstu.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Salixanov Saidxon Salixanovich
texnika fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Yuldashev Sharafitdin Sayfitdinovich
texnika fanlari doktori, professor

Axmedov Sherzod Baxodirovich
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «24» avgustda soat 10:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100067, Toshkent sh., Temiryo‘lchilar-1, tel: (+99871) 299-00-01, 299-02-43, faks: 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (178 raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100067, Toshkent sh., Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (+99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «____» _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil «____» _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.I. Adilxodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor

U.Z. Shermuxamedov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, texnika fanlari doktori, professor

A.A. Ishanxodjayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda logistika tizimining kengayishi, yo‘lovchi va yuk tashish hajmlarini, avtotransport vositalaridan tushuvchi yuklar hamda ularning harakat intensivligi ortishini inobatga olgan holda eski me‘yoriy hujjatlar bilan loyihalangan avtoyo‘l temirbeton ko‘priklarining ekspluatatsion ishonchliligi va chidamliligini baholash hamda ularning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishda resurs tejamkor usullarni qo‘llashga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarda ekspluatatsiya qilinayotgan avtoyo‘l ko‘priklarida zamonaviy vaqtinchalik yuk ta‘sirida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nuqson va shikastlanishlarni oldini olish, mavjudlarini bartaraf etish inshoot konstruksiya elementlarida zamonaviy materiallarni qo‘llash orqali amalga oshirilmoqda. Shu jihatdan ekspluatatsiya qilinayotgan ko‘prik inshootlarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish usullarini takomillashtirishda qatnov qismi konstruksiyalarida zamonaviy, resurs tejamkor va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash jarayonlariga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahonda ekspluatatsiya qilinayotgan avtoyo‘l temirbeton ko‘priklarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishda mahalliy sharoitlarni inobatga olgan holda eng maqbul qurilish-montaj ishlarining texnologik parametrlarini tanlash, ularning xizmat muddati va samaradorligini oshirish, avtoyo‘l ko‘prik va yo‘lo‘tkazgichlarga zamonaviy vaqtinchalik yuklarning salbiy ta‘sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar tasnifini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, ekspluatatsiyadagi inshootlarning umrboqiyiligiga salbiy ta‘sir qiluvchi omillarni kamaytirishga, xususan, atrof-muhitning va zamonaviy vaqtinchalik yuklarning salbiy ta‘sirini, texnogen va texnologik xususiyatga ega muammolarni, shuningdek, inshootlarni ekspluatatsiya qilish talablari buzilishining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda qurilish sohasini modernizatsiyalash, mavjud ko‘prik inshootlarining ekspluatatsion muddatini uzaytirish va yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish imkoniyatini beradigan yangi texnologiyalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan 192-197 bandlarida “ ... keyingi 5 yil davomida Toshkent va yirik shaharlar orasida avtomobil yo‘llari tarmoqlarini tezkorlik bilan rivojlantirish maqsadida avtomobil yo‘llarini rivojlantirish ... ”¹ yuzasidan vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, respublikamizda ekspluatatsiya qilinayotgan avtoyo‘l temirbeton ko‘prik va yo‘lo‘tkazgichlarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishning resurs tejamkor hamda innovatsion usullarini ishlab chiqish texnologiyalarini yaratish va takomillashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 4-oktabrdagi “Avtomobil yo‘llari ko‘priklarini, yo‘l o‘tkazgichlar va boshqa sun‘iy inshootlarni qurish, hamda foydalanishni tashkil etish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-3309-sonli

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son “2022-2026 yillarda yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.

qarori, 29-mart 2018-yildagi “2018-2022-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida avtomobil yo‘llari ko‘priklarini, yo‘l o‘tkazgichlar va boshqa sun‘iy inshootlarni qurish, rekonstruksiya qilish va mukammal ta‘mirlash dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-3632-sonli va 9-dekabr 2019-yildagi “Yo‘l sohasini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4545-sonli qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Eksploatatsiya qilinayotgan avtoyo‘l temirbeton ko‘priklarida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan nuqson va shikastlanishlarning oldini olish, yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish hamda ulardan zamonaviy vaqtinchalik yuklarni xavfsiz o‘tkazishni ta‘minlash masalalarni hal qilishda bir qator taniqli xorijiy olimlar katta hissa qo‘shganlar, jumladan E. Fehling, A. Daly, A. Gliwkaa, S. Hayhowb, M. Feng, I. Firth, T. Zoli, H. Raunio, W. Witarnawan, Y. Fujino, Y. Xia, O.E. Salamaxin, I.M.Guryayeva, A.B. Kasatkin, O. Rozdoroznik, S.L. Panfilov, A.A. Parfenov, A.V. Anisimov, V.O. Osipov, V.N. Smirnov, E.S. Karapetov, Y.D. Livshis, S.Y. Gridnev, D.B. Prosenko, I.O. Kuznetsova va boshqalar.

O‘zbekiston Respublikasida eksploatatsiya qilinayotgan avtoyo‘l temirbeton ko‘prik inshootlarining qoldiq resurslarini aniqlash, zamonaviy vaqtinchalik yuklarga moslash va yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish sohasidagi tadqiqotlar A.A. Ishanxodjeyev, R.K. Mamajanov, A.A. Ashrabov, M.X. Miralimov, U.Z. Shermuxamedov, S.S. Salixanov, Ch.S. Raupov, N.A. Krasin, R.Z. Nizamutdinova, I.G. G‘aniyev, U. Raxmanov, X.A. Baybulatov, N.Z. Saatova, Sh.B. Axmedov va boshqa yetuk olimlar tomonidan olib borilgan.

Amalga oshirilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, avtoyo‘l temirbeton ko‘priklarining yuk ko‘taruvchanlik qobiliyatini oshirish uchun unifikatsiyalangan oraliq qurilmalarning individual konstruksion yechimlarini innovatsion texnologiya va materiallarni inobatga olgan holda asoslash bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilmagan. Aynan shu holat mazkur dissertatsiya ishi mavzusini tanlash, uning maqsad va vazifalarini belgilashda asos bo‘ldi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat transport universitetining 33/2023-sonli shartnomasi asosida eksploatatsiyadagi ko‘priklarning yuk ko‘tarish qobiliyatini baholash doirasida “Xorazm viloyati hududida olib borilayotgan loyiha ishlarini bajarishda ichki yo‘llar tarkibiga kiruvchi ko‘priklarni diagnostika ko‘rigidan o‘tkazib berish” mavzusi bo‘yicha bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Respublikamizdagi eksploatatsiya qilinayotgan avtoyo‘l temirbeton ko‘priklarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish usullarini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

avtoyo‘l ko‘prik inshootlarining qatnov qismi konstruksiyalari turlari, zamonaviy harakatchan yuklarning ekspluatatsiyadagi inshootlarga salbiy ta‘sirini bartaraf etishga oid ilmiy va texnikaviy ma‘lumotlar hamda shu yo‘nalishda ilgari bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini tahlil etish;

ekspluatatsiya qilinayotgan avtoyo‘l temirbeton ko‘priklarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishning mavjud usullarini takomillashtirish bo‘yicha eksperimental-nazariy tadqiqotlar o‘tkazish;

ekspluatatsiya qilinayotgan avtoyo‘l temirbeton ko‘priklarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishning takomillashtirilgan usulini ishlab chiqish;

takomillashtirilgan usulning iqtisodiy samaradorligini baholash va ularni qo‘llash texnologiyasi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti eski me‘yoriy hujjatlar bilan loyihalani ekspluatatsiyaga topshirilgan avtoyo‘l temirbeton ko‘priklari olingan.

Tadqiqotning predmeti avtoyo‘l temirbeton ko‘priklarining oraliq qurilmalari yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish usullarini takomillashtirish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida eksperiment, tizimli va nazariy tahlil, matematik statistika, korrelyatsion-regression tahlil va modellashtirish hamda me‘yoriy hujjatlarda belgilangan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ekspluatatsiya qilinayotgan avtoyo‘l temirbeton ko‘prik inshootlarning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish usullari oraliq qurilma ishchi balandliklarini oshirish orqali takomillashtirilgan;

takomillashtirilgan usulning ishlash samaradorligini aniqlash uchun birgalikda ishlaydigan “bosh to‘sin – beton qatlami” konstruksiyasining kuchlanganlik – deformatsiyalanganlik holatini hisoblash uslubi turli sathlardagi kuchlanishlarni umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan “bosh to‘sin – beton qatlami” konstruksiyasining hisoblash uslubi orqali aniqlangan unifikatsiyalashgan oraliq qurilmalar ishchi balandliklarining ratsional qiymatlari ularning qoldiq resurslari qiymatlariga bog‘liqligi asoslangan;

zamonaviy (purkaladigan) gidroizolyatsion materiallarning beton va asfalt qatlamlari orasida himoya qatlamisiz ishlay olishi hisobiga “bosh to‘sin – beton qatlami” konstruksiyasining doimiy yuklar miqdori ortishiga salbiy ta‘sir qilmasligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ekspluatatsiyadagi avtoyo‘l temirbeton ko‘priklarining yuk ko‘tarish qobiliyatini takomillashtirilgan usul bo‘yicha oshirish ushbu ko‘priklar orqali zamonaviy yuklarni o‘tkazishga imkon bergan;

ekspluatatsiyadagi avtoyo‘l temirbeton ko‘priklari oraliq qurilmalarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish imkoniyatiga birgalikda ishlaydigan “bosh to‘sin - beton qatlami” konstruksiyasini qo‘llash orqali erishilgan;

birgalikda ishlaydigan “bosh to‘sin – beton qatlami” konstruksiyasining kuchlanganlik-deformatsiyalanganlik holatini aniqlash uslubidan oraliq qurilmalarning yuk ko‘tarish qobiliyatini baholashda foydalanilgan;

birgalikda ishlaydigan “bosh to‘sin - beton qatlami” konstruksiyasini hisoblash uchun ishlab chiqilgan EHM dasturidan ekspluatatsiya qilinayotgan ko‘priklarning unifikatsiyalangan temirbeton bosh to‘sinlardan tashkil topgan oraliq qurilmalarining yuk ko‘tarish qobiliyatini aniqlashda foydalanilgan;

ekspluatatsiyada bo‘lgan avtoyo‘l temirbeton ko‘priklari oraliq qurilmalarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishda “bosh to‘sin - beton qatlami” konstruksiyasini birgalikda ishlashini ta‘minlash taklif etilgan va eksperimental asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usul va o‘lchash vositalaridan foydalangan holda o‘tkazilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o‘zaro adekvatligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan birgalikda ishlaydigan “bosh to‘sin – beton qatlami” konstruksiyasi elementlarining ishlash samaradorligini baholash bo‘yicha o‘tkazilgan tajriba sinov ishlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ekspluatatsiya qilinayotgan avtoyo‘l temirbeton ko‘priklarining unifikatsiyalangan oraliq qurilmalaridan zamonaviy yuklarni o‘tkazish uchun qatnov qismi himoya qatlami bilan bosh to‘sinlarning birgalikda ishlashini ta‘minlovchi “bosh to‘sin - beton qatlami” konstruksiyasining kuchlanganlik deformatsiyalanganlik holatini hisoblash usuli ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati o‘tkazilgan eksperiment natijalaridan foydalangan holda ekspluatatsiyada bo‘lgan temirbeton avtoyo‘l ko‘priklari turli uzunlikdagi oraliq qurilmalari uchun individual ishchi balandliklar miqdori “bosh to‘sin - beton qatlami” konstruksiyasining kuchlanganlik deformatsiyalanganlik holatini hisoblash usuli orqali aniqlanganligi, shuningdek bu usul ko‘priksozlik korxonalarida qo‘llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Ekspluatatsiya qilinayotgan avtoyo‘l temirbeton ko‘priklarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish usullarini takomillashtirish bo‘yicha o‘tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishi natijalari asosida:

yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishning takomillashtirilgan usuli Avtomobil yo‘llari qomitasiga qarashli “Farg‘ona yo‘llardan muntazam foydalanish” unitar korxonasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024-yil 03-maydagi, 4/3651-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, mahalliy sharoitlarni inobatga olgan holda inshootlarning ishchi balandligini oshirish hisobiga ularning yuk ko‘tarish qobiliyati 16-18% gacha ortishiga erishilgan;

Avtomobil yo‘llari qo‘mitasiga qarashli korxonalar tomonidan, eski me‘yoriy hujjatlar bilan loyihalangan ko‘priklarning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish jarayonida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi “Toshkent Metropoliteni” Davlat unitar korxonasining 2024-yil 17-apreldagi, NZS/2-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada, inshootlarda zamonaviy gidroizolyatsion materiallari qo‘llash orqali ko‘prik va yo‘lo‘tkazgich konstruksiyalarini nam va agressiv muhit ta‘siridan samarali himoyalashga erishilgan;

Farg‘ona viloyati Rishton tumanidagi 4K-872A avtomobil yo‘lining 8+00 km qismidagi Farg‘ona kanali ustidan o‘tgan ko‘prikni rekonstruksiya qilish jarayonida amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligining 2024-yil

03-maydagi, 4/3651-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu takomillashtirilgan usul yordamida inshootlarning yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish uchun sarflanayotgan mablag'larni 10-13% gacha iqtisod qilishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida, "Farg'ona yo'llardan muntazam foydalanish" unitar korxonasi hamda Andijon mashinasozlik institutidagi ilmiy-amaliy seminarlarda muhokamadan o'tkazilgan.


Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy ish chop qilingan bo'lib, xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan nashrlarda 10 ta, mahalliy va yuqori impakt faktorli xorijiy jurnallarda 2 ta, xalqaro va mahalliy darajadagi konferensiya to'plamlarida 7 ta ilmiy maqolalar nashr etilgan; 3 ta EHM dasturiga mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiyaning hajmi 117 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan bo'lib, olib borilgan tadqiqotning asosiy maqsadi va masalalari ifodalangan, tadqiqotning obyekt va predmeti tavsiflangan, Respublikaning fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan.

Dissertatsiyaning "**Muammoning holati va tadqiqot vazifalari**" deb nomlangan birinchi bobida avtomobil ko'priklari qatnov qismining turlari, ulardagi nuqson va shikastlanishlarning yuzaga kelish sabablari, gidroizolyatsion materiallardagi kamchiliklar va zamonaviy harakatchan yuklarning ekspluatatsiyadagi ko'priklarga salbiy ta'siri hamda mavjud muammolar tahlili keltirilgan. Shuningdek, ushbu bobda yuqorida keltirilgan nuqson va shikastlanishlar sababli Respublikamizdagi mavjud 14863 avtoyo'l ko'priki inshootlarining ekspluatatsion holatining tahlili keltirilgan (1-rasm).



1-rasm. Respublikamizda mavjud avtoyo'l ko'priki inshootlarining ekspluatatsion holati

Respublikamizdagi mavjud ko'priki va yo'lo'tkazgichlarning aksariyati 1960-1980 yillarda ekspluatatsiyaga topshirilganligi sababli ulardagi nuqson va shikastlanishlarning asosan me'yoridan ortiq miqdordagi vaqtinchalik yuklar ta'siri natijasida vujudga kelmoqda (2-rasm).




2-rasm. Respublikamizda umumfoydalanishdagi avtoyo‘l ko‘priklarining qurilish va yuk sinflarining o‘shish dinamikasi

Natijada, yillar davomida turli normativ hujjatlar bilan loyihalanib ekspluatatsiyaga topshirilgan avtoyo‘l ko‘prik konstruksiyasi elementlarida vaqtinchalik yuklardan zo‘riqishlarni ortishiga olib keladi. Bir vaqtning o‘zida ko‘priklarda gidroizolyatsion tizimlaridagi nuqson va shikastlanishlarning vujudga kelishi hamda vaqtinchalik yuklarning belgilangan me‘yorlardan ortishi, ko‘prikning yuk ko‘taruvchanlik ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sir qilib, inshoot umrboqiylik davrini 30% gacha qisqarishiga olib kelmoqda. Respublikamizda ham oxirgi yillarda ko‘prik inshootlarini zamonaviy vaqtinchalik yuklarga moslashtirishga katta e‘tibor berilayotgani, ekspluatatsiyadagi inshootlarning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish usullarini takomillashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Ushbu takomillashtirilgan usul mohiyatan oraliq qurilma ko‘ndalang kesim o‘lchamlarini, doimiy yuk hajmlarini va qurilish montaj ishlari texnologiyalarini tubdan o‘zgartirmasdan amalga oshirish hisoblanadi.


Adabiy manbalar tahlili, qo‘yilgan maqsadlarga muvofiq ishlab chiqilgan xulosalardan kelib chiqqan holda, ekspluatatsiya qilinayotgan avtoyo‘l temirbeton ko‘prik va yo‘lo‘tkazgichlar oraliq qurilmalarining yuk ko‘tarish qobiliyatini ularning ishchi balandliklarini oshirish orqali ta‘minlash taklif etildi (3-rasm).

Ushbu taklif etilayotgan takomillashtirilgan usulning ishlash samaradorligi baholash hamda amaliyotga tadbiq etishning potensial mexanizmlarini ishlab chiqish uchun bir qator eksperimental tadqiqotlar o‘tkazish lozim bo‘ladi.




3-rasm. Ko‘prik qatnov qismining mavjud va taklif qilinayotgan sxematik tuzilishi

Dissertatsiyaning “Ekspluatatsiyadagi ko‘prikning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish usullarini takomillashtirish bo‘yicha eksperimental-nazariy tadqiqotlar” deb nomlangan ikkinchi bobida foydalanishdagi avtoyo‘l ko‘prik inshootlarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishning takomillashtirilgan usulini ishlab chiqishning eksperimental-nazariy hamda simulyatsion tahlil natijalari keltirilgan. Ushbu tadqiqotlarni o‘tkazish uchun konstruksiya sxematik modellari hamda namunalari shakllantirildi (4-rasm).



4-rasm. Namunalarning tayyorlanish sxemasi

Yuqorida keltirilgan rasm bo'yicha tayyorlangan (model) namunalar 28 sutka tabiiy sharoitda quritildi va 4÷5 oy davomida ochiq havoda saqlandi. So'ngra namunalar a va b toifaga ajratildi, bunda namunalarning 5 donasida mexanik ankerlash (a) va 5 donasida sirt yuzalarini kesish (b) ishlari amalga oshirildi. Mexanik ankerlangan va kesilgan namunalarga 1 smdan 5 smgacha qalinlikda qo'shimcha beton qatlami yotqizilib yana 28 sutka quritildi (5-rasm).



5-rasm. Ishchi balandligi oshirilgan namunalar

Tayyor bo'lgan namuna modellarining chegaraviy eguvchi moment qiymatini quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

Oddiy namuna uchun

$$M_{ch} = R_b \cdot b \cdot x \cdot (h_0 - 0,5 \cdot x) \quad (1)$$


Ishchi balandligi orttirilgan namunalar uchun

$$M_{ch} = R_b \cdot b \cdot x \cdot ((h_0 + h_1) - 0,5 \cdot x) \quad (2)$$

O'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki, konstruksiya modellarining ishchi balandliklari 5-25% gacha ortganda, ularning chegaraviy eguvchi moment qiymatlari mos ravishda 8-39% gacha ortdi.


Simulyatsion tadqiqotlarni o'tkazish uchun Ansys dasturiy ta'minotida hisoblash algoritmi blok sxemasi orqali namuna modellari shakllantirildi. Shakllantirilgan modellarda sinov yuki ta'siri natijasida hosil bo'lgan ekvivalent, normal va urinma kuchlanishlar hamda Z o'qi bo'yicha hosil bo'lgan deformatsiyalar aniqlanadi. Bunda, temirbeton konstruksiya modellariga (1 dan 6 gacha barcha namunalarni bir xil miqdordagi sinov yuklariga) Z o'qiga nisbatan ortib borish tartibi bo'yicha 0.1kN dan

4.41kN (1.0 kg dan 450.0 kg gacha) og'irlikdagi massani yuklandi. Natijada, modellarda sinov yuki ta'sirida hosil bo'lgan ekvivalent, normal va urinma kuchlanishlar hamda deformatsiyalar aniqlanadi va nazariy tadqiqot natijalari bilan o'zaro taqqoslanadi (6-rasm).



6-rasm. Namuna modellarida sinov yuki ta'sirida Z o'qi bo'yicha hosil bo'lgan deformatsiyalar

6-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, temirbeton konstruktsiya modellarini yuklash orqali Z o'qi bo'yicha hosil bo'lgan deformatsiyaning ortib borish progressiyasi aniqlandi.




7-rasm. Taqqoslash natijalari

Natijada, modellarga qo'yilgan sinov yuki ta'sirida qo'shimcha qatlamsiz namuna modelining Z o'qi bo'yicha hosil bo'lgan deformatsiya (salqilik) 1-namuna modelida 0,0083mm dan 0,9130mm gacha va 2-namuna modelida esa 0,0051mm dan 0,4737mm gacha miqdorni tashkil qildi. Taqqoslash natijalari esa 89-91% aniqlikda o'zaro ishonchlilikni ko'rsatdi (7-rasm).

Yuqorida o'tkazilgan nazariy hamda simulyatsion tahlil natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, model ishchi balandliklari miqdori ularning yuk ko'tarish qobiliyatiga sezilarli ta'sir qildi. Ushbu o'zgaruvchilar o'rtasidagi ijobiy korrelyatsiyaning potentsial mexanizmlarini tadqiq etish uchun qo'shimcha eksperimental tadqiqot o'tkazildi. Tayyor bo'lgan temirbeton konstruktsiya namunalarning eksperimental-tadqiqotlari "Respublika muhandislik qidiruvlari va laboratoriya tadqiqot markazi" ilmiy tadqiqot laboratoriyasida o'tkaziladi. Tajriba sinov ishlarida namunalarning amaliy mustahkamligi maxsus uskunalar yordamida tekshirildi va beton sinfi aniqlandi.


Namunalarning amaliy mustahkamlik ko'rsatkichlari aniqlanganidan so'ng ularning dastlabki ko'rikdan (nuqsonlarning mavjud yoki yo'qligi tekshirilishi kerak) o'tkazildi. Shunigdek, Gidravlik presslarga o'rnatilgan konstruktsiya namunalarni qo'zg'almas tayanchlarga o'rnatilganligi, konstruktsiyaga ta'sir qiladigan sinov yukining teng taqsimlanganligi belgilangan yuklanish sxemasiga mosligi hamda nazorat o'lchovchi uskunalar (tenzo datchiklar) ning sozligi tekshirildi. Namunalardagi yuklanish ta'sirida vujudga keladigan darzlarni shaffof ko'rinishini ta'minlash hamda

o‘lchov aniqligi uchun oq rangga bo‘yaldi. Tajriba sinov ishlari boshlanganidan so‘ng sinov yuklarini bosqichma-bosqich vaqt davomida yuklash amalga oshirildi (8-rasm).



8-rasm. Namunalarning yuklanish sxemasi va sinov jarayoni


Temirbeton konstruksiyalarni yuklash jarayoni namunalar konstruktiv yaxlitligi buzulgunga qadar, ya’ni, singunga qadar davom etdi (9-rasm). Olib borilgan tajriba sinov natijalari (9-rasm) shuni ko‘rsatdiki, qo‘shimcha beton qatlami yordamida ishchi balandligi oshirilgan konstruksiyalarning yuk ko‘tarish qobiliyati qo‘shimcha beton qatlamisiz tayyorlangan namunalarning yuk ko‘tarish qobiliyatiga nisbatan mos ravishda a toifadagi namunalarda 10% dan 41% gacha hamda b toifadagi namunalarda 11% dan 39% gacha oshdi.



9-rasm. Namunalarning sinov natijalari grafigi

Dissertatsiyaning “**Inshootlarning yuk ko‘taruvchi elementlarini qo‘shimcha beton qatlami bilan birgalikda ishlash imkoniyatlarini o‘rganish**” deb nomlangan uchinchi bobida 2012-yilgacha amalda bo‘lgan (asosan QMQ 2.05.03.-97 “Ko‘priklar va quvurlar”) me’yoriy hujjatlar asosida loyihalangan (12, 15, 18, 21, 24 va 33m uzunlikdagi) ko‘priklarning A11 (NK80) va A14 (NK100) ko‘rinishidagi vaqtinchalik yuklarni o‘tkazish qobiliyati baholandi. Bunda ekspluatatsiyadagi inshoot oraliq

qurilmalarining qoldiq resurslari MShN 32-2004 bo'yicha aniqlandi. Ularning yuk ko'tarish qobiliyati esa SHNQ 2.05.03-22 "Ko'priklar va quvurlar" ga muvofiq tekshirildi. Bitta oraliq qurilmaga tushayotgan vaqtinchalik yuk ulushi ko'ndalang qo'yilish koeffitsiyenti (KQK) (markazdan tashqari siqilishning umumlashtirilgan uslubi yordamida) aniqlanadi.



10-rasm. Vaqtinchalik yuk ta'sirida hosil bo'lgan eguvchi momentlar

Ushbu 10-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, oraliq qurilmalarda A11 va NK80 ko'rinishida ta'sir etayotgan vaqtinchalik yuklardan hosil bo'lgan eguvchi momentning maksimal qiymati mos ravishda 1323.46 kNm va 1164.46 kNm ni tashkil qildi. Huddi shunday, zamonaviy vaqtinchalik yuklar (A14 va NK100) ta'siridagi oraliq qurilmalarda hosil bo'lgan eguvchi moment qiymatlari mos ravishda maksimal 1684.41 kNm va 1485.29 kNm ni tashkil qildi. Bu esa chegaraviy holatning 2-guruhi bo'yicha inshootning me'yoriy ekspluatatsion talablariga javob bermaydi va ularning yuk ko'tarish qobiliyatini ikkinchi bobda ishlab chiqilgan takomillashtirish usuli yordamida amalga oshirish lozim.

Birgalikda ishlaydigan "bosh to'sin – beton qatlami" konstruksiyasining yuk ko'tarish qobiliyatini hisoblash uslubi – bosh to'sin ishchi balandliklarini oshirish uchun oraliq qurilmalarning ustki qismiga yotqiziladigan qo'shimcha beton qatlamining ishlash imkoniyatini baholashdan iborat. Qo'shimcha qatlamning ishlash samaradorligini "bosh to'sin – beton qatlami" konstruksiyasining kuchlanganlik deformatsiyalanganlik holatini hisoblash uslubi orqali aniqlaymiz.

Ayni vaqtda hosil bo'lgan kuchlanish quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\sigma_{oq1}^{62} = [\eta^e (M_{g1} + M_0) + \psi^e N_0] \frac{h_0}{h_0 - a'} - [\eta^h (M_{g1} + M_0) + \psi^h N_0] \frac{a'}{h_0 - a'} \quad (5)$$

Momentdagi qo'shimcha boshlang'ich kuchlanishlar:

$$\sigma_{oq2}^{62} = [\eta^e (M_{g2})] \frac{h_0}{h_0 - a'} - [\eta^h (M_{g2})] \frac{a'}{h_0 - a'} \quad (6)$$

So'ngra, salqilikning so'nish vaqtidagi yuqori qirra sathi bo'yicha deformatsiyalarni hisoblaymiz:

$$\varepsilon_{bt1}^{62} = \frac{1}{E_b} (\sigma_{bo1}^{62} K_{1\tau_0} + \sigma_{bt1}^{62} K_{2\tau_0}) + \varepsilon_{yt}, \quad \varepsilon_{bt2}^{62} = \frac{1}{E_b} (\sigma_{bo21}^{62} K_{1\tau} + \sigma_{bt2}^{62} K_{2\tau}) \quad (7)$$

$$\varepsilon_{bt}^{62} = \varepsilon_{bt1}^{62} + \varepsilon_{bt2}^{62} \quad (8)$$

Bosh to‘sinning yuk ko‘tarish qobiliyatini tugash vaqtiga kelib, yuqori qirrasida sathidagi deformatsiya chekli siqiluvchanlik qiymati ε_{cheg} ga ega bo‘ladi. Shunda bosh to‘sin betonidagi uzoq muddatli jarayonlar so‘nishidan so‘ng beton qatlamidagi deformatsiya quyidagiga teng bo‘ladi.

$$\varepsilon_{bn} = \varepsilon_{cheg} - \varepsilon_{bt}^{\beta z} \quad (9)$$

Armaturada kuchlanish qiymatini quyidagi formula yordamida ifodalanadi:

$$\sigma_s = E_s \cdot \varepsilon_{cheg} \frac{h_0 - x}{x} \leq R_s - \sigma_0 \quad (10)$$

Bundan tashqari, takomillashtirilgan uslub bo‘yicha hisoblashda yassi kesimlar gipotezasi asosida x_1 ni x_2 orqali ifodalash mumkin. Neytral o‘qdan x_1 masofada (shartli elastik va shartli plastik sohalar orasidagi chegara) buzilish deformatsiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\varepsilon_b^{x_1} = \frac{R_b - \sigma_{bt}^{x_1}}{E_b} + \varepsilon_{bt}^{x_1} \quad (11)$$

bu yerda

$$\varepsilon_{bt}^{x_1} = \varepsilon_{bt}^{H z} + (\varepsilon_{bt}^{\beta z} - \varepsilon_{bt}^{H z}) \frac{h - x + x_1}{h} \quad (12)$$

Yassi kesimlar gipotezasi asosida

$$\frac{\varepsilon_b^{x_1}}{\varepsilon_{cheg}} = \frac{x_1}{x} \quad (13)$$

$\varepsilon_b^{x_1}$ ifodaning o‘niga (13) ni qo‘yib, quyidagi yakuniy ifodaga ega bo‘lamiz.

$$x_1 = \frac{x(R_b - \sigma_{bt}^{x_1} + E_b \varepsilon_{bt}^{x_1})}{E_b \varepsilon_{cheg}} \quad (14)$$

“Bosh to‘sin – beton qatlami” konstruksiyasi hisobga olinganidan so‘ng, SHNQ 2.05.03-22 “Ko‘priklar va quvurlar” bo‘yicha oraliq qurilmaning yuk ko‘tarish qobiliyati qayta tekshiriladi. Shuningdek, oraliq qurilmaning darzbardoshlilik ko‘rsatkichlari quyidagi shartlar orqali tekshiriladi (1-jadval).


1-jadval

Oraliq qurilmani darzbardoshlilikga tekshirish natijalari


№	Oraliq qurilma, 24m	Darzbardoshlilikga tekshirish shartlari				
		1-shart	2-shart	3-shart	4-shart	5-shart
		$\sigma_{bt}^{\beta z} \leq 0,8R_{bt,ser}$	$\sigma_{bc}^{H z} \leq R_{bt,mc1}$	$\sigma_{bc}^{H z} \leq 1,4R_{bt,ser}$	$\sigma_{bc}^{H z} \leq R_{b,mc2}$	$\sigma_{pc}^{H z} \geq 1,6MPa$
1	Ruxsat etilgan	<1.186	<14.90	<2.73	<16.7	1.6<
2	Hosil bo‘lgan	0.72	14.29	1.31	5.96	3.47

Tekshiruv natijalaridan ma’lum bo‘ldiki 24m uzunlikdagi oraliq qurilmaning yuk ko‘tarish qobiliyatini takomillashtirilgan usul yordamida oshirish uchun 70 mm qalinlikdagi qo‘shimcha beton qatlamini yotqizish yetarli bo‘lishini ko‘rsatdi. Shuningdek, inshoot oraliq qurilmalariga ShNQ 2.05.03-22 “Ko‘priklar va quvurlar” da belgilangan vaqtinchalik yuklar ta’sir qilganda, inshootning darzbardoshlilik ko‘rsatkichlari saqlanib qoladi.

Yuqorida bajarilgan tadqiqot ishlarining ishonchlilik darajasini oshirish uchun Midas Civil DT yordamida ushbu oraliq qurilmalarning yuk ko‘tarish qobiliyati takomillashtirilgan usul yordamida oshirilishidan oldingi (A11 va NK80 uchun) va kegingi (A14 va NK100 uchun) holatlari baholandi. Buning uchun, oraliq qurilma modellari “Beam” tipidagi sterjenli elementlar yordamida yaratildi. Ushbu yaratilgan 1-namuna modeliga QMQ 2.05.03-97 “Ko‘priklar va quvurlarda” hamda 2-namuna modeliga ShNQ 2.05.03-22 “Ko‘priklar va quvurlarda”da belgilangan vaqtinchalik yuklar navbati bilan yuklanadi hamda modellarda hosil bo‘lgan eguvchi moment qiymatlari va zo‘riqlashlarni aniqlaymiz.



1-namuna modeli



2-namuna modeli

11-rasm. “Beam” tipida yaratilgan oraliq qurilma modellarning ko‘rinishi

Tadqiqot natijalaridan ko‘rishimiz mumkinki, ishchi balandlikni ortishi natijasida 1 va 2 modellarimizda vaqtinchalik yuklar (NK80 va NK100) ta‘sirida hosil bo‘lgan eguvchi moment qiymatlari mos ravishda 1187.07kNm hamda 1563.07kNm ni tashkil qildi. Natijada oraliq qurilmalarning 1 va 2 modellaridagi umumiy moment qiymatlari 984.86kNm hamda 787.64kNm ni tashkil qildi. Eksploatatsiyadagi avtoyo‘l ko‘priklarining yuk ko‘tarish qobiliyati takomillashtirilgan usul yordamida oshirilganda, ulardan zamonaviy vaqtinchalik yuklarni inshootga salbiy ta‘sir ko‘rsatmasdan o‘tkazish imkoniyati mavjud.

Ya‘ni, eski me‘yoriy hujjatlar (QMQ 2.05.03-97 “Ko‘priklar va quvurlar”) bilan loyihalaniq qurilgan inshootlardan zamonaviy vaqtinchalik (ShNQ 2.05.03-22 “Ko‘priklar va quvurlar”) yuklarni, inshoot oraliq qurilmalarning ishchi balandliklarini oshirgan holda o‘tkazish mumkin.

Shu o‘rinda, inshootlar turg‘unligini ta‘minlashda tayanch va poydevorlar rolining muhimligini, ularning yuk ko‘tarish qobiliyatini baholashda proaktiv yondashuvni keltirib chiqaradi. O‘tkazilgan muhandislik tekshiruv natijalari shuni ko‘rsatdiki, inshoot tayanch va poydevorlariga ta‘sir qilayotgan yuklarning 29-30% gacha ortishi, ulardan zamonaviy yuklarni o‘tkazish imkoniyatini cheklamaydi. Shuningdek, ularning geometrik o‘lchamlarini o‘zgartirish talab etilmaydi. Inshoot poydevorlarining talab qilingan va mavjud yuzalari o‘rtasidagi (sayoz joylashgan poydevorlar uchun $\pm 5\%$, qoziqlar uchun $+5\%$ dan -15% gacha) tafovut ruxsat etilgan farqlar diapazoni chegarasini qanoatlantiradi.

Dissertatsiyaning **“Takomillashtirilgan ko‘priklar qatnov qismining samaradorligini asoslash va uni qo‘llash texnologiyasi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida eksploatatsiyadagi avtoyo‘l ko‘priklar va yo‘lo‘tkazgichlarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishning takomillashtirilgan usulini qo‘llashning iqtisodiy samaradorligi va uni qo‘llash texnologiyasi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.


Eksploatatsiyadagi ko‘priklarning iqtisodiy samaradorligi quyidagi formulalar orqali aniqlanadi (2-jadval).

Yuk ko'tarish qobiliyatini oshirishning taklif etilayotgan usulining iqtisodiy samaradorligini hisoblash


Iqtisodiy samaradorlikni hisoblash formulalari	
$S_{(f)} = \Sigma S_{(f1)} - \Sigma S_{(f2)}$	bu yerda – $S_{(f)}$ – iqtisod qilinadigan mablag'lar; $\Sigma S_{(f1)}$ – mavjud usuldagi sarf xarajatlar; $\Sigma S_{(f2)}$ – taklif etilayotgan usuldagi sarf xarajatlar; k_1 – sarf xarajatlarning umumiy qiymatiga nisbatan olinadigan koeffitsient; k_2 – materiallarni saqlash va tashish xarajatlarini inobatga oluvchi koeffitsient;
$\Sigma S_{(f1)} = k_1 \cdot S_n$	
$S_n = S_{ish} + S_{mm} + k_2 \cdot S_m$	
$\Sigma S_{(f2)} = k_1 \cdot S_{n+1}$	
$S_{n+1} = S_{ish} + S_{mm} + k_2 \cdot S_m$	

2-jadvalda keltirilgan formulalardan foydalanib, ekspluatatsiyadagi avtoyo'l temirbeton ko'priklarining yuk ko'tarish qobiliyatini oshirishda, amaliyotda mavjud va taklif etilayotgan usullarning moddiy kapital boyliklarning sarf miqdorlari va erishilishi prognozlashtirilayotgan iqtisodiy samaradorlik natijalarining o'sish dinamikasini hisoblab chiqamiz (11-rasm).

Quyida keltirilgan 11, a-rasmdan ko'rishimiz mumkinki, ekspluatatsiya qilinayotgan avtoyo'l ko'priklari va yo'l o'tkazgichlarning oraliq qurilmalarini Respublikamizda amalda bo'lgan SHNQ 2.05.03-22 "Ko'priklar va quvurlar" me'yoriy hujjatida keltirilgan zamonaviy avtotransport vositalaridan tushayotgan vaqtinchalik yuklarini o'tkazish qobiliyatini oshirish, muallif tomonidan taklif etilayotgan usulda amalga oshirilganda (12-33m uzunlikdagi inshootlar uchun 66.73mln so'mdan 268.2mln so'mgacha) inshoot qatnov qismi yuzasining har 1 m² da taqriban 556072.89 so'mdan 812721.92 so'mgacha *iqtisodiy samaradorlikka* erishish mumkin.



a) umumiy sarf xarajatlari



b) ish turlari bo'yicha ulushi

11-rasm. Oraliq qurilmaning yuk ko'tarish qobiliyatini oshirishda sarf xarajatlarning o'sish dinamikasi

Ushbu takomillashtirilgan usul yordamida erishiladigan iqtisodiy samaradorlik ish turlari bo'yicha o'zaro taqqoslanganida, xarajatlarning 66% miqdori qurilish materiallari uchun, omborxonasi xarajatlari uchun esa 1% miqdori sarf bo'lishi aniqlandi (11, b-rasm).

Ekspluatatsiyadagi ko‘prik inshootlarining yuk ko‘tarish qobiliyatini takomillashtirilgan usul yordamida oshirish uchun dastlab inshoot qatnov qismi konstruksiya elementlari oraliq qurilma ustki qismigacha olib tashlanadi. Ketingi bosqichlarda oraliq qurilmaning ustki yuzasi maxsus suyuqliklar yordamida tozalanib, ankerlanadi yoki kesiladi (*нарезка*). Ankerlangan yuzaga beton qorishmasi (beton qatlamining qalinligi 12÷33m uzunlikdagi oraliq qurilmalar uchun 68÷85mm ni tashkil qiladi) yotqizilib, navbati bilan gidrozolyatsion (*tayyorlov to‘shamasi (prime), membrana (eliminator), himoya to‘shamasini (tack coat)*) membrana va asfalt to‘shamasini montaj qilinadi.

XULOSA

“Ekspluatatsiya qilinayotgan avtoyo‘l temirbeton ko‘priklarning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish usullarini takomillashtirish” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar keltirilgan:

1. Ekspluatatsiya qilinayotgan avtoyo‘l temirbeton ko‘prik va yo‘lo‘tkazgichlarda yuzaga kelgan nuqson va shikastlanishlarning kelib chiqish sabablari, qatnov qismi konstruksiya elementlaridagi, jumladan, gidrozolyatsion tizimlardagi shikastlanishlar, ularning inshootlarning ekspluatatsion ko‘rsatkichlariga salbiy ta‘sirlari hamda yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishning mavjud usullari tahlil qilindi va o‘rganildi. Izlanishlar natijasida, ko‘prik inshootlarining umrboqiyiligini ta‘minlash hamda zamonaviy vaqtinchalik yuklarning inshootga salbiy ta‘sirini kamaytirish uchun, ularning yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish usullarini takomillashtirish zarurati paydo bo‘ldi.

2. Ekspluatatsiyadagi ko‘prik inshootlarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirish usullarini takomillashtirishi bo‘yicha o‘tkazilgan eksperimental-nazariy tadqiqotlar natijalariga asoslanib, ko‘prik inshootlarining yuk ko‘tarish qobiliyatini ularning oraliq qurilmalari ishchi balandliklarini oshirish orqali ta‘minlash taklif etildi. Ushbu taklif etilgan usulning ishlash samaradorligi nazariy, tajriba-sinov hamda Ansys DT yordamida baholandi hamda natijalar o‘zaro solishtirildi. Taqqoslash natijasiga ko‘ra, simulyatsion tahlil, eksperimental va nazariy tadqiqot natijalari taqriban 89-91% aniqlikda ishonchlilikni ko‘rsatdi.

3. Avtoyo‘l temirbeton ko‘prik inshootlarining eski me‘yoriy hujjatlar bilan loyihalangan oraliq qurilmalariga amaldagi me‘yoriy hujjatlar bilan belgilangan vaqtinchalik yuklar ta‘sir qilganda, doimiy va vaqtinchalik (A14 va NK100) yuklar ta‘sirida hosil bo‘lgan eguvchi moment hamda uning chegaraviy eguvchi moment qiymatlari orasidagi farq 1-3% ni tashkil qildi. Bu esa chegaraviy holatning 2-guruhi bo‘yicha inshootning me‘yoriy ekspluatatsion talablariga javob bermaydi.

4. Tadqiqot ishida avtoyo‘l temirbeton ko‘prik inshootlarining yuk ko‘tarish qobiliyatini oshirishning birgalikda ishlaydigan “bosh to‘sin – beton qatlami” konstruksiyasining kuchlanganlik – deformatsiyalanganlik holatini hisoblash uslubi orqali unifikatsiyalangan oraliq qurilmalar uchun individual yechimlar ishlab chiqildi. Natijada, ekspluatatsiyadagi ko‘prik inshootlarining yuk ko‘tarish qobiliyati takomillashtirilgan usul yordamida oshirilganda, 12, 15, 18, 21, 24 va 33m uzunlikdagi unifikatsiyalangan oraliq qurilmalarga mos ravishda 68-85mm qalinlikdagi

qo'shimcha beton qatlamlarini yotqizish yetarli bo'ldi. Ya'ni, oraliq qurilma ishchi balandliklari 7-13% ga oshirilganda ularning yuk ko'tarish qobiliyati ham mos ravishda 16-18% ga ortdi.

5. Yuk ko'tarish qobiliyati takomillashtirilgan usul yordamida oshirilgan ko'priklarning inshootlariga ta'sir qilayotgan vaqtinchalik yuklar ortishining ekspluatatsiyadagi ko'priklarning tayanchlari va poydevorlariga ta'sirini baholash natijalari shuni ko'rsatdiki, tayanch va poydevorlarning yuk ko'tarish qobiliyati unga ta'sir qilayotgan vertikal yuklar (QMQ 2.05.03-97 "Ko'priklar va quvurlar") miqdoriga nisbatan taqriban 29-30% ga ko'proqni tashkil qildi. Ya'ni, vaqtinchalik yuklar miqdorlarining ortishi (A14 va NK100) ekspluatatsiya qilinayotgan ko'priklarning inshootlaridan zamonaviy yuklarni o'tkazishni cheklamaydi hamda ularning geometrik o'lchamlarini o'zgartirish talab etilmaydi.

6. Ko'priklarning inshootlari yuk ko'tarish qobiliyatini oshirishning takomillashtirilgan usuli loyiha-texnik hujjatlar aprotatsiyasi jarayonida yetarli samaradorlikni ko'rsatdi. Ekspluatatsiyadagi ko'priklarning inshootlarining qatnov qismi konstruksiya elementlari takomillashtirilgan usul orqali shakllantirilganda, nafaqat ularning zamonaviy yuklarni o'tkazish qobiliyati ortadi, balki amaliyotda qo'llanilib kelinayotgan usullarga qaraganda resurs tejankor hisoblanadi.

7. O'tkazilgan tadqiqot ishlari natijalari asosida "Ko'priklarning tayanchiga tushadigan yuklar va ularning birikmalarini aniqlashni avtomatizatsiyalashgan hisobi", "Ko'priklarning ko'taruvchi elementlarini ko'priklarning himoya qatlami bilan birgalikda ishlash imkoniyatlarini hisoblash" va "Ko'priklarning oraliq qurilmalarining yuk ko'taruvchanligini oshirishda bajarilgan ishlarning iqtisodiy samaradorligini baholash" nomli EHM dasturlari avtoyo'l ko'priklari va yo'l o'tkazgichlarining qoldiq resurslarini aniqlash, "bosh to'sin – beton qatlami" konstruksiyasining ishlash samaradorligini baholash, bosh to'sinlarning optimal ishchi balandliklarini aniqlashda hamda yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish bo'yicha qilingan ishlarni o'zaro taqqoslash va ratsional parametrlarini tanlash ishlari avtomatizatsiyalashdi.

8. Ekspluatatsiya qilinayotgan avtoyo'l temirbeton ko'priklarning yuk ko'tarish qobiliyati takomillashtirilgan usul yordamida oshirilganda, reabilitatsiya ishlari sarf xarajatlarini 10-13% gacha iqtisod qilishga erishiladi. ABC4 dasturiy ta'minoti yordamida qilingan loyiha – smeta ishlariga ko'ra, ekspluatatsiyadagi inshootlarning yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish orqali ko'priklarning qatnov qismining 1 m² uchun taqriban 0.56mln so'mdan 0.81mln so'mgacha iqtisodiy samaradorlikga erishish mumkin.

9. Oraliq qurilmalarning yuk ko'tarish qobiliyatini ularning ishchi balandliklarini oshirish orqali ta'minlanganda, mamlakatimizda ekspluatatsiya qilinayotgan temirbeton ko'priklari va yo'l o'tkazgichlarining zamonaviy yuklarni o'tkazishga moslashtiradi, bu esa o'z navbatida, ushbu inshootlarning me'yoriy hujjatlarda belgilangan muddatlarda ekspluatatsiya qilinishini ta'minlaydi. Shuningdek, gidroizolyatsion tizimdagi nosozliklar, vaqtinchalik me'yoriy yuklarning ortishi hamda ularning uzoq muddat ta'siri sababli inshootlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nuqson va shikastlanishlarni oldini olishga imkon beradi.

10. Taklif etilayotgan takomillashtirilgan usul yuzaga kelgan muammolarni hal qilish uchun pragmatik va barqaror yechim bo'la oladi. Ushbu usul vaqtinchalik yuk

sinflarining potensial o'sish (NK120, NK140, NK180...) tendensiyalariga moslashuvchanlik zahirida texnologik yutuqlardan foydalangan holda ko'prik inshootining umrboqiyiligini oshirishi, sarf xarajatlarni minimallashtirishi hamda doimiy operatsion funktsionallikni ta'minlashi mumkin.

Muallif dissertatsiya mavzusini tanlash, qimmatli maslahatlari hamda tadqiqotlarni amalga oshirish, natijalarni muhokama qilish va joriy etishda ko'rsatgan yordamlari uchun ilmiy rahbari t.f.n., professor S.S. Salixanovga, bundan tashqari, ekspluatatsiyadagi avtomobil temirbeton ko'prik va yo'lo'tkazgichlarning yuk ko'tarish qobiliyatini oshirish usullarini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan nazariy va eksperimental tadqiqot natijalarini o'zaro taqqoslash usullari hamda universal amaliy dasturlarni ishlab chiqish masalalarida bergan maslahatlari uchun t.f.d., professor U.Z. Shermuxamedovga hamda t.f.n., dotsent U.Raxmanovga minnatdorchiligini izhor etishni o'z burchi deb hisoblaydi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.15/31.08.2022.Т.73.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ЗОКИРОВ ФАХРИДДИН ЗОХИДЖОН УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ПОВЫШЕНИЯ НЕСУЩЕЙ
СПОСОБНОСТИ ЭКСПЛУАТИРУЕМЫХ АВТОДОРОЖНЫХ
ЖЕЛЕЗОБЕТОННЫХ МОСТОВ**

05.09.02 – “Геотехника” (Мосты, транспортные тоннели и метрополитены)

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2023.3.PhD/T4016.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (разуме)) размещен на веб-сайте Научного Совета (www.tstu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Салиханов Саидхон Салиханович**
кандидат технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Юлдашев Шарафитдин Сайфитдинович**
доктор технических наук, профессор

Ахмедов Шерзод Баходирович
доктор философии (PhD) по техническим наукам

Ведущая организация: **Джизакский политехнический институт**

Защита диссертации состоится «24» август 2024 года в 10:00 часов на заседании Научного совета DSc.15/31.08.2022.T.73.04 при Ташкентском государственном транспортном университете. (Адрес: 100167., г. Ташкент, ул. Темирийўлчилар, 1. Тел: (+99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-5754; e-mail: rektorat@tstu.uz, tashiit@exat.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного университета (зарегистрирована № 178). (Адрес: 100067., г. Ташкент, ул. Темирийўлчилар, 1. Тел.: (+99871) 299-05-66).

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2024 года.
(реестр протокола рассылки № __ от «__» _____ 2024 года).

А.И. Адилходжаев
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

У.З. Шермухамедов
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

А.А. Ишанходжаев
Председатель научного семинара при Научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Особое значение придается использованию ресурсосберегающих методов при повышении пропускной способности с учетом расширения логистической системы в мире, объемов пассажирских и грузовых перевозок, нагрузки от автотранспорта и увеличения интенсивности их движения проведена оценка эксплуатационной надежности и долговечности автодорожных железобетонных мостов, спроектированных по старым норм и их несущей способности. В настоящее время в развитых странах мира предупреждаются дефекты и повреждения, которые могут возникнуть вследствие современных временных нагрузок, а существующие устраняются путем использования современных материалов в конструктивных элементах сооружений. В связи с этим особое внимание уделяется процессам использования современных, ресурсосберегающих и инновационных технологий в конструкциях проезжей части при совершенствовании методов повышения несущей способности эксплуатирующихся мостовых конструкций.

Проводятся научно-исследовательские работы, направленные на совершенствование классификации мероприятий по снижению негативного воздействия современных временных нагрузок, повышение несущей способности и срока службы, а также эффективности эксплуатируемых в мире железобетонных автодорожных мостов с учетом местных условий. В этом направлении, среди прочего, принимаются меры, направленные на снижение факторов, негативно влияющих на срок службы эксплуатируемых объектов, в частности, неблагоприятного воздействия окружающей среды и современных временных нагрузок, техногенных и технологических проблем, а также предотвращение нарушений требований к эксплуатации объектов – разработка мероприятий считается одной из актуальных задач.

В нашей республике принимаются комплексные меры по модернизации строительной отрасли, продлению срока эксплуатации существующих мостовых конструкций, разработке новых технологий, позволяющих повысить несущую способность, и достигаются определенные результаты. «В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы, включая пункты 192-197, были включены задачи как, «...развитие автомобильных дорог с целью опережающего развития сети автомобильных дорог между Ташкентом и крупными городами в течение следующих 5 лет...»². При реализации этих задач разработка ресурсосберегающих и инновационных методов повышения несущей способности автомобильных железобетонных мостов и путепроводов, эксплуатируемых в нашей республике, является одним из актуальных вопросов создания и совершенствования технологий.

Данная диссертационная работа в определенной степени направлена на выполнение задач, определенных в решениях ПК-4545 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы управления дорожным хозяйством»,

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № УП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 - 2026 годы»

